

Yusufning akalari keldilar



12:30 / 29.05.2019 2792

17

Yusuf xabar berganidek Misr va Shomda (hozirgi Suriya) ochlik bor edi. Misrda shunday rahmdil kishi borligini Shom ahli va Ya'qub eshitdi: «Albatta, Misrda ochiqko'ngil va saxovatli inson bor bo'lib, u yer xazinalari ustidadir. Odamlar uning oldiga borib, undan taom olardilar».

Ya'qub bolalariga pul berib, ovqat olib kelish uchun Misrga yubordi. Binyamin otasining huzurida qoldi. Chunki Ya'qub uni juda yaxshi ko'rardi. Undan uzoqlashishni xohlamas edi. Ya'qub u haqda Yusufga qayg'urganidek qayg'urar edi. Yusufning akalari Yusufga yuzlandilar va uning o'z ukalari Yusuf ekanini bilmadilar. Ular bu o'sha quduqdagi Yusuf ekanini bilmadilar. Ular uni o'lgan deb o'ylardilar. Quduqda qanday o'lmasin? U quduqda edi, quduq esa chuqur edi. Quduq o'rmonda edi, o'rmon esa qo'rqinchli edi. Bu qorong'uda bo'lgan edi.

Qorong'ulik esa zulmat edi.

«Yusufning og'a-inilari keldilar va uning huzuriga kirdilar. Bas, u ularni tanidi. Ular esa uni tanimadilar».

Ular Yusufni tanimay inkor qildilar lekin Yusuf ularni inkor qilmadi, balki tanidi. Yusuf bildiki, ular uning o'limini xohlaganlar edi. Lekin Alloh uni saqlab qolgan edi. Yusuf ularga hech narsa demadi va ularni fosh qilib, sharmanda ham qilmadi.